



## SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING МОХИЯТИ, ТАМОЙILLARI VA FUNKSIYALARI

*Abduraxmanov Shaxriyor Zafar o‘g‘li*

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

*Menejment : Sog‘liqni saqlash menejmenti fakulteti*

*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan sug‘urta sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni yanada ortib ketdi. Ayniqsa iqtisodiyotni ko‘p tarmoqli tizimda rivojlantirish, davlat korxonalarining kamayishi, tadirkorlikni rivojlanishi sug‘urta sohasini, O‘zbekiston sug‘urta bozorini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Shuning uchun sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy menejment ko‘pvariantlidir. Moliyaviy menejmentning ko‘p variantliligi va moliyaviy kombinatsiyalarining o‘xshash bo‘lmasligi, moslashuvchan va notakror bo‘lgan xo‘jalik vaziyatlarga ta’sir qilish usullarini anglatadi. Bu maqolada biz sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy boshqaruv faoliyatining tamoyillari, mohiyati va funksiyalarini ko‘rib o‘tamiz.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy menejmenti mexanizmi, boshqaruv funksiyasi, rejalashtirish, prognozlashtirish, moliyaviy natijalarni tahlil qilish, sug‘urta kompaniyasining funksiyasi, sug‘urta tashkilotining tashkiliy strukturasi.

**Аннотация:** С переходом к рыночной экономике страховой сектор в жизни общества его место еще больше возросло. В частности, развитие экономики в многоотраслевой системе, сокращение государственных предприятий, развитие предпринимательства требуют дальнейшего развития страхового сектора и страхового рынка Узбекистана. Поэтому финансовый менеджмент в страховых организациях является многомерным. Универсальность финансового менеджмента и финансовой непохожие комбинации, гибкие и уникальные относятся к способам воздействия на существующую экономическую ситуацию. В данной статье мы рассматриваем принципы, сущность и функции финансового менеджмента в страховых организациях.

**Ключевые слова:** Развитие страховой деятельности в Узбекистане, механизм финансового управления, функции управления, планирование,



прогнозирование, анализ финансовых результатов, функции страховой компании, организационная структура страховой организации.

**Annotation:** With the transition to the market economy, the insurance sector in the life of society its place has increased even more. In particular, the development of the economy in a multi-sectoral system, the reduction of state enterprises, the development of entrepreneurship require the further development of the insurance sector and the insurance market of Uzbekistan. Therefore, financial management in insurance organizations is multivariate. The versatility of financial management and financial non-similar combinations, flexible and unique refers to ways of influencing existing economic situations. In this article, we consider the principles, nature and functions of financial management in insurance organizations.

**Key words:** Development of insurance activity in Uzbekistan, mechanism of financial management, function of management, planning, forecasting, analysis of financial results, function of insurance company, organizational structure of insurance organization.

### KIRISH

Sug‘urta tashkilotida sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarni biz tadbirkorlar deb atasak bo‘ladi. Sug‘urta faoliyat juda katta ma’suliyatni talab qiladi. Bunday faoliyat bilan yuqori mavqega ega bo‘lgan tadbirkorlar shug‘ullanishadi, chunki, u katta boshlang‘ich mablag‘ni talab qiladi. Tadbirkor turli xil kutilmagan holatlarda ko‘riladigan zararni qoplashga ma’lum haq evaziga kafolat beradigan shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Hozirda qarz sug‘urtasi, mulk sug‘urtasi, hayot sug‘urtasi, tibbiyot sug‘urtasi kabi sug‘urta shakllari bor. Bunday sug‘urta turlarida muttasil to‘lab boriladigan sug‘urta badallari evaziga, biror kor-hol yuz berganda yetkazilgan zarar yoki yo‘qotishning o‘rni qoplanadi. Sug‘urta aholini baxtsiz hodislardan, kasalliklardan himoya qila turib, moddiy mablag‘ga muxtoj bo‘lganda aholini himoya qilishda asosiy yordam beruvchi manbaalardan biriga aylandi.

**Sug‘urta** — turli xil kutilmagan holatlar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy muammolardan muhofaza qilish faoliyati. Sug‘urta yordamida nafaqat korxona va tashkilotlar o‘zlarining moliyaviy holatini yaxshilanmoqda, balkim mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlanishiga yordam berib kelmoqda. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Sug‘urta bozorini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy baza yaratilgan. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz yuz berayotgan



vaqtida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejment mexanizmini nazariy va amaliy jihatidan o‘rganib, sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalash ishlab chiqish hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy texnik taraqqiyotning keskin avj olishi va jahon xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishning keskin o‘sishi barcha soxalarda bo‘lganidek moliyaviy boshqaruvning ilmiy konsepsiyanalarida xam taraqqiyotlar bo‘lishiga olib keldi. Menejment mohiyatini bir-biri bilan bog‘liq bir qancha fundamental asoslar tashkil etadi. Menejment-biznesni, sug‘urta tashkilotlarining ishbilarmonlik faoliyatini boshqarishdir. Menejmentda bosh vazifa bo‘lib, u quyidagidan iborat: qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun kishilar kuchi va ishtiyoqi hamda sug‘urta tashkilotlari imkoniyatlarini jalg etishdan iborat. AQSH va G‘arbiy Evropa iqtisodchi-olimlari “sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti o‘zining bosh maqsadi sifatida aksiya kursini, aksiyaga to‘g‘ri keluvchi sof foyda miqdorini, dividend darajasini, hissadorlar mulkini va boshqalarni ko‘paytirishni ilgari suruvchi firmalar moliyasini boshqarishdir” deb tushuntirishga harakat qilishadilar. V.A.Lyalin va P.V.Vorobevlar esa “sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti - sug‘urta tashkilotlari o‘z va qarz mablag‘laridan samaraliroq foydalanishi hamda eng kam tahlika sharoitida yuqori foyda olishni ta’minlashining uslublari, yo‘nalishlari haqidagi fandir” deb tushuntiradilar. Biroq har ikkala tushunchada ham tizimlilik yetishmaydi. Masalan, I.T.Balabanov fikricha, “sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti - moliyaviy resurslar harakati va bu jarayonda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlarni boshqarish maqsadini ishlab chiqish va ularga moliya dastaklari yordamida ta’sir etish jarayonini xususiyatlaydi” deb fikir bildiradi. E.S.Stoyanova tahriri ostida chiqqan “Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti: nazariya va amaliyoti” darsligida ta’kidlanishicha, “moliyaviy menejment sug‘urta tashkilotlari o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun foydalanadigan usullarning zaruriy majmuasidir. Rejalashtirish sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentda muhim ahamiyat kasb etadi chiqiladi. Boshqaruv funksiyasi – moliyaviy rejalashtirish – reja topshirig‘ini ishlab chiqish bo‘yicha ham, ularni amalga oshirish bo‘yicha ham barcha chora tadbirlar majmuasini qamrab oladi.

Prognozlashtirish – (grekcha prognoses – oldindan ko‘rish ) moliyaviy menejmentda uzoq istiqbolga moliyaviy holatni o‘zgartirishni ishlab chiqish tushuniladi. Prognozlashtirish rejalashtirishdan farqli hamda ishlab chiqilgan prognozni bevosita amaliyotga tadbiq etish vazifasini oldiga qo‘ymaydi.



Yuqoridagi ko'rsatkichlar moliyaviy holat rivojlanishini variantliliginin aniqlaydi. Ushbu variantlar ob'ektidagi jarayonlardagi xodisalarning variantliliqi namoyon bo'layotgan tendensiyalar asosida ishlab chiqiladi. Prognozlashtirish eksport baholarini hisobga olgan holda o'tmishni kelajakka ekstraponyasiyalash asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar tasodifan yuz berishi mumkin.

**Nazorat** moliyaviy natijalarni tahlil qilishni ko'zda tutiladi. **Tahlil** – moliyani rejalashtirishning bir qismidir. Demak, moliyaviy nazorat moliyaviy rejalashtirishning bir qismi deb qaralishi lozim bo'lib, u moliyaviy rejalaryning bajarilishini, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat etadi. Boshqaruв topshiriqlarini qilishga yondoshish turli tushgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun sug'urta tashkilotlarida moliyaviy menejment ko'p variantlidir. Moliyaviy menejmentning ko'p variantliligi va moliyaviy kombinatsiyalarining o'xhash bo'lmasligi, moslashuvchan va notakror bo'lgan xo'jalik vaziyatlarga ta'sir qilish usullarini anglatadi. Menejment (boshqarish) strukturasining bosh tamoyili vakolat va javobgarliklarni yuqoridaн quyigacha taqsimlanishi hisoblanadi.

Mazkur tamoyilning amalga oshirilishi quyidagilarni bildiradi:

1. Sug'urta kompaniyasining xodimiga ma'lum faoliyat sohasi topshiriladi. U mazkur soha chegarasida harakat qilish va mustaqil qaror qabul qilishga majbur hisoblanadi hamda bu uchun to'liq javobgarlikni oladi.

2. Tarkibiy bo'linma (boshqarma, bo'lim, sektor) rahbari jiddiy muammolar paydo bo'lish holatidan boshqa hollarda o'z qo'l ostidagilar faoliyat sohasiga aralashish huquqiga ega emas. U asosan o'z xodimlari ishi ustidan nazoratni amalga oshirishi zarur. Boshqarishning bunday tashkiliy tuzilishida har bir xodim, u qanday darajada ishlayotganligidan qat'iy nazar, u faqatgina o'z vakolatlari doirasida qilgan va qilmagan ishlarigagina javob beradi. Sug'urta kompaniyasining yuqori rahbariyati bajarishi lozim bo'lgan funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Sug'urta kompaniyasining har bir bosqichdagi umumiy maqsadlarini belgilash.

2. Sug'urta kompaniyasi faoliyatining tegishli strategiyasini ishlab chiqish va rejalashtirish.

3. Boshqarish (menejment) strukturasini ishlab chiqish.

4. Marketing konsepsiyasini ishlab chiqish.

5. Moliyaviy siyosatni belgilash.



6. Faoliyat sohalarini (shaxsiy sug‘urta, mulkiy sug‘urta, javobgarlik sug‘urtasi, qayta sug‘urtalash) shakllantirish.

7. Faoliyat sohalarini o‘zaro muvofiqlashtirish.

8. Kadrlar va ijtimoiy masalalarni xal etish.

Sug‘urta kompaniyasini faoliyat sohalari bo‘yicha tashkiliy strukturasi shuni bildiradiki, sug‘urta kompaniyasining funksiyalari xodimlarning qobiliyatlaridan (malakalaridan) kelib chiqib emas, balki mazkur tashkiliy tuzilmaga mos ravishda shakllantiriladi. Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi, bundan tashqari, sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta xizmatlari bozorini bo‘lishib olish bo‘yicha til biriktiruvlari, kelishuvlari va boshqa harakatlarini, raqobatni chegaralash yoki boshqa tashkilotlarni sug‘urta bozoriga kirishiga qarshiliklarni oldini olish hisoblanadi. G‘irrom raqobat vosita va usullari (sug‘urta tariflarini sun’iy ravishda ko‘tarish yoki tushirish, sug‘urtalanuvchini sug‘urta turi shartlari yoki o‘z raqobatchilarining moliyaviy holati to‘g‘risida noto‘g‘ri ma’lumot berish orqali chalg‘itishga urinishlar)ni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Гвозденко А.А. Основы страхования: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 320 с.
2. Mahmudova L. Sug‘urta ishi-O‘quv qo‘llanma—Т.-TAKI 2004
3. Сплетухов Ю.А. Страхование ответственности. Учебное пособие - М.: Аудитор, 2004.-172с.
4. Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент. Российская практика. - М.:Перспектива, 2003.
5. Chandra Prasanna. Financial Management. Theory and Practice. Third Edition - New Delhi: Tata Mc Graw-Hill Publishing Company Limited, 2005. - 23 р.
6. Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент. Российская практика. - М.:Перспектива, 2003. - 13 с.
7. Shennaev X.M. Sug‘urta agentlari uchun qo‘llanma. T. infoCOM.UZ MChJ.-2010 у.
8. Yo‘ldoshev M, Tursunov Y. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta huquqi. Darslik - Toshkent, “Moliya”.-2012.
9. Страховое дело: Учебник. В 2 т. (пер. с нем. О.И. Крюгер и Т.А. Федоровой). - т.1: Основы страхования / под ред. О.И. Крюгер. - М.: Экономист, 2004. - 447 с.